

## MINTAQAs SANOATINI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA KATTA MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH

**Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li**

Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) 022-27 guruh talabasi

**Javlon Halimov**

Ilmiy rahbar: Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinosbosari

---

### A R T I C L E I N F O.

---

**Kalit so'zlar:** axborot xavflari, ekonometrik modellar, Imitatsion model, axborot risklari, moliyaviy usullar, Identifikatsiya jarayoni.

### Annotatsiya

---

Ushbu maqolada mintaqas sanoatini transformatsiya jarayonida katta ma'lumotlar bazasini yaratishning muhim bosqichlari ko'rib chiqilgan. Maqola, ma'lumotlar bazasining samaradorligini oshirish va innovatsiyalarini rivojlantirish orqali mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

---

### Kirish

Mintaqa sanoatini raqamlı transformatsiyalash jarayonida, albatta, katta ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, jarayonni tahlil qilish imkonini oshirilib boradi. Mintaqas sanoat korxonalari har yili o'z ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida axborot texnologiyalarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga sarmoya kiritmoqda. Korxonaning axborot muhitini rivojlantirish, korxonaning yangi modullarini joriy etish, ma'lumotlar uzatish kanallarini modernizatsiya qilish zaruriyati paydo bo'ldi.

Mintaqada sanoat tarmoqlari faoliyatini tashkil qilish jarayonlarini shakllantirishda turli darajadagi menejerlar doimiy ravishda sanoat korxonasining nazorat qilinadigan qismidagi vaziyat haqida ishonchli ma'lumot olish muammosiga duch keladilar. Sanoat korxonalarida turli axborot tizimlarini joriy etish, olingan axborotning to'liqligi, ishonchliligi va maxfiyligi masalalarini hal qilishga imkon beradi. Biroq sanoat korxonalarining axborotlarini tahlil qilishning moliyaviy usullarini joriy etish va ulardan foydalanish bo'yicha juda kam tadqiqotlar mavjud. Sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishda moliyaviy usullar nafaqat axborot risklarini boshqarish bo'yicha faoliyatni baholash va xarajatlar samaradorligini shakllantirish, balki ularni baholash uchun xarajatlarni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mintaqa sanoat tarmog'ida axborotlarni samarali boshqarishni yaratish bir martalik loyiha emas, balki resurslar va vaqt chekllovlarini hisobga olgan holda tashqi va ichki xavflarni minimallashtirishga qaratilgan kompleks jarayondir. Boshqaruv obyektining qiymatini baholashga asoslangan axborot risklarini boshqarishning moliyaviy usullarini alohida guruhga ajratish mumkin, chunki ular deyarli har

qanday axborot xavfiga qarshi universal vositadir. Sanoat korxonalarida axborotlarni boshqarish strategiyalarida quyidagi moliyaviy usullar qo'llaniladi:

- moliyaviy zaxiralarni yaratish
- axborotlarni sug'urtlash
- axborotlarni boshqarish xarajatlarini tahlil qilish.

Mintaqa sanoat tarmoqlari axborotlarini boshqarish tizimini qo'llash uchun quyidagi qoidalarni o'z ichiga olgan axborotlarini boshqarish metodologiyasini amalga oshirish zarur:

- axborotlarini tahlil qilish orqali boshqarish;
- axborotlarini boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish;
- axborotlarini boshqarish usullari va vositalardan kompleks muvofiqlashtirish.

Mintaqada sanoatni raqamli transformatsiyalashda axborotlarini boshqarishning funksional tuzilmasi, uni yaratish maqsadlariga va vazifalariga mos kelishi hamda axborotlarini boshqarish bilan shug'ullanadigan korxonaning barcha elementlarini yagona tizimga birlashtirishi, shuningdek, korxonada umumiy risklarni boshqarish tizimiga kiritilishi kerak.

Mintaqa sanoat tarmog'ini barqaror rivojlantirishda axborot xavflarini tahlil qilish boshqaruvning asosiy bosqichidir va ikki ketma-ket harakatlardan iborat:

- axborot xavflarini aniqlash;
- axborot xavflarini baholash.

Mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda axborot xavflarini tahlil qilishning birinchi bosqichi ularni identifikatsiyalashdir. Ushbu bosqichda, sanoat tarmoqlari faoliyati uchun barcha mumkin bo'lgan axborot xavflarini qidirish va ularning ro'yxatini yaratish amalga oshiriladi. Identifikatsiya jarayonida sanoat korxonalarining axborot modeli va axborot xavflarini tasniflash taklif etiladi. Ular har bir xavfning o'rmini, uning tabiatini aniqlashga, uning paydo bo'lishining sababini tushunishga imkon beradi. Mintaqa sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish jarayoni, narx-navo, hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar tashqi muhit axborotlarining diqqat markazida bo'ladi. Bizning fikrimizcha, kuzatuv manbalarini tasniflashni statistik tadqiqotlarda qo'llanuvchi umumiy sxema bo'yicha amalga oshirish lozim. Mintaqa sanoat tarmog'ida bevosita kuzatuv davomida ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ekspertlarning o'zları belgilasa, hujjatlashdirishda ma'lumotlar mos keluvchi hujjatlardan, so'rovlarda esa ma'lumotlar so'ralayotgan shaxslarning javoblaridan olinadi.

### Tahlil va natijalar

Mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda axborot bazasi modeli umumiy maqsadni alohida qui maqsadlarga taqsimlash yo'li bilan olinuvchi iyerarxik tuzilmani yaratishni ko'zda tutadi. Mintaqa sanoat tarmog'ida axborot baza modelini yaratishning umumiy uslubiyati ilmiy adabiyotlarda keng yoritib berilgan. U bir qancha talab va cheklashlardan iborat bo'lib, to'liqlik va oddiylik o'rtasida muvozanat o'rnatishga intiladi. Bizning tadqiqotimizda esa mintaqa sanoat tuzulmasini ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri amalga oshirish va istiqbolda rivojlanishini baholash hamda prognoz qilish vositasi sifatida ekonometrik modellar tarkibini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda ma'lumotlar bazasi katta ma'lumotlar hajmidan iborat bo'lgani uchun katta ma'lumotlar xavfsizlik va maxfiylikni saqlash maqsadida quyidagi xavfsizlik tamoyillari ishlab chiqiladi hamda ma'lumotlar bazasining xavfsizlik natijalariga qarab, mutaxassis tahlil qilinayotgan jarayon to'g'risida xulosalar chiqaradi, uning amalga oshishiga ma'lum maqsad asosida ta'sir ko'rsatadi, boshqarish vositalarini ishlab chiqadi, tavsiyalar beradi.

Mintaqa sanoatini raqamli transformatsiyalashda boshqaruv parametrlarini ajratish, oraliq qarorlarni

baholash va yakuniy qarorlarni tanlash operatorga yuklanadi, mumkin bo‘lgan ko‘pchilik yechim variantlari MBBTda yechiladi. Buning uchun, eng avvalo, uning o‘ziga xos asosiy xususiyatlari ajratiladi va ular o‘rtasida imitatsion munosabat o‘rnataladi. Imitatsion model tuzilgach, ya’ni masala matematik ko‘rinishda ifodalangach, uni ma’lum imitatsiya tajribalar orqali tahlil qilish mumkin. Tadqiqot mintaqasi sanoat tarmog‘ini axborot bazasini rivojlantirish orqali transformatsiya jarayonlarni rivojlantirishdagi modellashtirishning makroiqtisodiy xarakteriga mos bo‘lgan, umumlashtiruvchi jamlanma ko‘rsatkichlar yordamida sanoatdagi ishlab chiqarish jarayonidagi holatni to‘la tahlil qilishga imkon beruvchi tizimli-tarkibiy model ishlab chiqish zaruriyatiga asoslangan.

### **Xulosa va takliflar**

Mintaqa sanoatini zamonaviy modellarini yaratish ko‘proq axborotlarni almashish, axborot modellarini takomillashtirishga bog‘liq. Milliy iqtisodiyotning, davlatlarning, ayrim hududlarning, sanoat korxonalarining rivojlanishiga umumiylar tarzda to‘xtalganlar. Lekin mintaqasi sanoat tuzilmasining tarmoqlari faoliyatida ko‘rsatayotgan subyektlarning iqtisodiyoti yaxlit tarzda o‘rganilmagan. Mintaqasi iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunda zamonaviy jamiyat qurishning eng asosiy omillaridan biri ekanligini inobatga olgan holda sanoat tuzilmasini raqamlashtirish darajasini baholash usuli taklif etildi. Shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslangan holda har bir sanoat korxonalarining elektron passportini yaratish hamda mamlakat hududlarida sanoat tarmoqlarining hajmi, narxi va boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron ma’lumotlar bazasini yaratish taklif etildi. Mintaqasi sanoat korxonalarini har yili o‘z ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy omillari asosida rivojlantirish va modernizatsiya qilishga sarmoya kiritmoqda. Iqtisodiy risklarini boshqarishning funksional tuzilmasi, uni yaratish maqsadlariga va vazifalariga mos kelishi hamda axborot risklarini boshqarish bilan shug‘ullanadigan korxonaning barcha elementlarini yagona tizimga birlashtirishi, shuningdek, korxonada umumiy risklarni boshqarish tizimiga kiritilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

- Ходиев Б.Ю., Мусалиев А.А., Бегалов Б.А. Менеджмент информационных систем. - Т.: ФАН, 2007, - 300 с.
- Ченсова М.В. Концепция экономики знаний как новое направление формирования современной экономической парадигмы. Вестник ФА. №1. 2008. - С. 121.
- Шумпетер Й.А. История экономического анализа: в 3 т. – СПб.: Экономическая школа, 2003 – 494 с.; Энригхт
- Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития / Й.А. Шумпетер. Пер. В.С. Автономова и т.д. – М.: Директмедиа Паблишинг, 2008. – 401 с.
- Экономико-технологическое развитие фирм : учебник / В.Н. Юсим, И.В. Денисов. – М.: РЕУ им. Г. В. Плеханова, 2012. – 148 с.
- Экономическая безопасность России: Общий курс: Учебник / Под ред. В. К. Сенчагова. - М.: Дело, 2005. -896 с.
- Яковес, У.В. Циклы и кризисы XXI века: цивилизационный аспект : Докл. на юбил. науч. сессии Рос. акад. естеств. наук / У.В. Яковес. – М.: МФК, 2000. – 43 с.